

## ADABIYOT TA'LIMINI MULTIMEDIALASHTIRISHNING BOLALAR AQLIY FAOLIYATIGA TA'SIRI

*Moxidilxon Abdullayeva Dilshodbek qizi,*

*ToshDO'TAU Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti Ona tili va adabiyot ta'limi  
kafedrasida tayanch doktoranti [madilshodbekqizi@gmail.com](mailto:madilshodbekqizi@gmail.com)*

*Tel: +99897584288*

**Annotatsiya.** Tezida adabiyot ta'limida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati Gardner nazariyasi asosida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar.** Multimedia, Gardner, intellekt, animatsiya, musiqiy-ritmik, vizual, lingvistik, matematik-mantiqiy, kinestetik-tanaga oid, shaxslararo intellekt.

Multimedia vositalarining ta'lim jarayoni sifatiga ta'sirini Gardner ta'limoti orqali izohlasak o'rinli bo'ladi. 1983-yil Hovard Gardner o'z teoreyasini oldinga surdi. Unga ko'ra, odamlar bir dona yaxlit intellektga emas, ko'p sonli intellekt, aqliy qobiliyatlarning majmuiga ega bo'ladi.<sup>1</sup> Ushbu tushuncha o'zidagi ayrim xususiyatlarda insonning sezgi a'zolari bilan uyg'unlik hosil qiladi. Ya'ni ushbu aqliy qobiliyatlar sezgi a'zolar o'zagida shakllanadi. Gardner biz sakkizta intellekt egasi ekanimizni ta'kidlaydi. Multimedia vositalari umumiy holatda ushbu intellekt turlarining deyarli barchasiga ta'sir ko'rsatadi. Quyida ularning o'quvchi, inson takaffurining Gardner ta'kidlagan 4 turi rivojiga ta'siri haqida so'z boradi.

### 1. **Musiqiy-ritmik intellektga o'quv-multimediali vositalarning ta'siri.**

Musiqiy-ritmikda siz yaxshi qo'shiq aytasiz, asbob chala olasiz, mukammal eshituv yuqori, ritmni his qilasiz, leksiyalarda ham eshitib yaxshi o'rganasiz, balki buyuk kompozitor bo'larsiz, sizda boshqa intellektdan ko'ra aynan shu qobiliyat kuchli rivojlangan.<sup>2</sup>

Ayrim insonlarda eshitish qobiliyati yuqori darajada rivojlanadi. Muhim jihat eshituvning yuqoriligida emas, balki u bajara oladigan vazifalarning kuchida. Markaziy nerv sistemasiga tashqi va ichki muhitda sodir bo'lib turadigan barcha jarayonlar to'g'risida axborot kelib turadi. Bu axborot sezgi organlari orqali qabul qilinadi. Har bir sezgi organi faqat muayyan turdagi ta'sirot idrok etilishini

<sup>1</sup>Raхмонов Ш., Ўрганишни ўрганиш, мукаммал хотира ёхуд миянгиз қобилиятларини қайта кашф қилинг. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2014. – B.262.

<sup>2</sup>Raхмонов Ш. Ўрганишни ўрганиш, мукаммал хотира ёхуд миянгиз қобилиятларини қайта кашф қилинг. – Тошкент: Yangi asr valodi, 2014. – B.262.

ta'minlaydi. Masalan, ko'z yorug'likdan, quloq tovushdan ta'sirlanadi.<sup>3</sup> Inson hayoti mobaynida tashqi dunyodan qabul qiladigan axborotlarining juda ko'p qismi eshitish orqali amalga oshadi. Bu yo'l bilan hosil bo'lgan ma'lumotlar boshqa sezgi organlari bilan qabul qilingan ma'lumotlarga nisbatan ancha to'liq bo'ladi. Odam atrof-muhitdan tovush to'liqlarini eshitish organlari orqali qabul qiladi. Eshitish orqali odam nutq o'rganadi va o'zaro muloqot qiladi.<sup>4</sup>

Multimedia vositalari tarkibiga audio materiallarning ham kirishi va animatsion lavhalar yordamida yaratilgan roliklarga audio ma'lumotlarning joylashtirilishi, shuningdek, taqdimotlarga joylanishi mumkin bo'lgan audio materiallar o'quvchi ongida mavzuning yaqqol aks etishini ta'minlaydi.

## **2. Vizual-ko'rish intellektiga multimediali vositalarning ta'siri.**

Ko'rish orqali biz tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalarni payqaymiz, ularning harakatini va o'zgarishini kuzatamiz, shakli, rangi, o'lchami va turgan joyini bilib olamiz. Insonning o'qishi, yozishi, rasm chizishi, tomosha qilishi, transport vositalarini haydashi, ilm olishi, hunar o'rganishi va boshqa barcha faoliyati ko'rish bilan bog'liq. Odam tashqi dunyodan oladigan axborotning deyarli 90 foizini ko'z orqali qabul qiladi.<sup>5</sup> Vizual-ko'rish bu – umumiy insonning intellektual qobiliyati bo'lib, inson miyasida tasavvur qila olishi, katta rasmni yaqqol ko'ra olishi bilan xarakterlanadi, muhandis yoki rassomlar ajoyib tasavvur va fantaziya sohiblari hisoblanadi.<sup>6</sup>

Ushbu jarayon faollashishida, ayniqsa, animatsion texnologiyalarning ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Animatsion lavhalar grafiklarni "jonlantirish"ga qaratilgan ekan, o'quvchi uni bevosita vizual yo'l bilan qabul qiladi. Metodikada bu tushuncha "obrazli xotira" atamasi bilan ham izohlanadi. Ushbu atamaning mohiyati shundan iboratki, bola bu intellekt turiga animatsion lavhalarning ta'siri natijasida "obrazli xotira" orqali ijodiy fikrlashni o'rgana boshlaydi. Undagi vizual aqliy qobiliyat o'z o'zagida boshqa bir qobiliyat – ijodiy fikrlash qobiliyati uchun zamin yaratadi. Vizualizatsiya texnikasi – bu sodir bo'lishini istayotganingiz vaziyatlarning tasviriy obrazini shakllantirishdir. Vizualizatsiya juda bolalarbop sanaladi, chunki u

<sup>3</sup>Mavlonov O., Tilavov T., Aminov B. Biologiya (Odam va uning salomatligi). – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – B.157.

<sup>4</sup>Mavlonov O., Tilavov T., Aminov B. Biologiya (Odam va uning salomatligi). – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – B.165.

<sup>5</sup>Mavlonov O., Tilavov T., Aminov B. Biologiya (Odam v uning salomatligi). – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – B.159.

<sup>6</sup>Рахмонов Ш. Ўрганишни ўрганиш, мукаммал хотира ёхуд миянгиз қобилиятларини қайта кашф қилинг. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2014. – B.262.

bolalarning shusiz ham o‘ta faol tasavvuridan foydalanadi va uni ijobiy o‘zanga yo‘naltiradi. Gap imtihon topshirish haqida ketadimi yoki yangi do‘st orttirish haqidami – farqi yo‘q, bu texnika hayratlanarli natijalar beradi. Bolalarda tasavvur juda kuchli, shu sababli vizualizatsiya g‘oyasini ular yengil qabul qiladilar.<sup>7</sup> Ko‘z orqali qabul qilingan ma‘lumotlar inson miyasida ham ixtiyoriy, ham ixtiyorsiz ravishda saqlanib qoladi. Illyustratsiya, o‘quv animatsion lavha, videoroliklardan dars jarayonida foydalanish o‘quvchilarning vizualizatsiya imkoniyatlarini kengaytiradi.

### **3. Lingvistik-og‘zaki intellektga multimediali vositalarning ta‘siri.**

Lingvistik-og‘zaki intellekt bu – so‘zlarni ishlatish, o‘qishni yaxshi ko‘rish, tilni bilish va gapga ustalik bilan ajralib turadi, ayniqsa, bahslarda yaqqol bilinadi, huquqshunos yoki yozuvchilarda yuksak darajada bo‘ladi.<sup>8</sup>

Adabiyot va ona tili darslarining yonma-yon o‘tilish bejizga emas. Ona tili darslarida bolalarga insho yozish texnikasi o‘rgatiladi. Asosan, o‘quvchi adabiy-badiiy mavzuda insho yozadi. Adabiyot fanida o‘tilgan biror adib hayoti va ijodi yoki ma‘lum asardan olgan taassurotlarini ifodalagan ijodiy va erkin mavzudagi insholar bolada asta-sekinlik bilan yozuvchilarga xos bo‘lgan yuksak so‘z mas‘uliyatini shakllantiradi. Multimedia vositalaridan foydalanuvchi o‘qituvchidan shu talab etiladiki, u yangi, o‘quvchi nutqida mavjud bo‘lmagan so‘zlarni metodlar, o‘quv animatsion lavhalarga kiritishi, o‘sha so‘z bola uchun to‘liq mutolaaga sabab bo‘lishini ta‘minlovchi nutqni joylashtirishi kerak bo‘ladi. Shu so‘zlarga ilova qilingan audio va videomateriallarning jamlanishi esa bir vaqtning o‘zida ham vizual-ko‘rish, ham musiqiy-ritmik, ham lingvistik-og‘zaki intellektga ta‘sir ko‘rsatadi.

### **4. Kinestetik-tanaga oid intellektga multimediali vositalarning ta‘siri.**

Kinestetik-tanaga oid intellekt bu – tanasini yaxshi tushuna olish, o‘zining tanasini boshqarish, qo‘l-oyoqlarning harakatlarini ko‘p bajarishga urinadi, raqqoslar va sport o‘yinchilari yaqqol misol. Leonel Messi ajoyib kinestetik-tana intellektga erishgan bo‘lishi mumkin, ammo matematik testlardan yiqilishi mumkin, baribir uning iqtidori saqlanib qolaveradi.<sup>9</sup>

Bir qarashda ushbu qobiliyat hattoki, aqliy qobiliyat ham emasdek tuyuladi va multimediali vositalarning ushbu intellektga ta‘siri umuman yo‘qdek. Lekin yuqorida aytilganidek multimedia vositalarining tarkibiy qismi bo‘lgan animatsion lavhalar dinamik – “jonlangan”, yana ham aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak harakatdagi

<sup>7</sup> Кехо J., Fisher N. Ong qudrati – bolalar xizmatida. – Toshkent: Davr Press, 2017, –B.38-39.

<sup>8</sup>Раҳмонов Ш. Ўрганишни ўрганиш, мукамал хотира ёхуд миянгиз қобилиятларини қайта кашф қилинг. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2014, – B.262.

<sup>9</sup>Раҳмонов Ш. Ўрганишни ўрганиш, мукамал хотира ёхуд миянгиз қобилиятларини қайта кашф қилинг. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2014. – B.263.

tasvirlar jamlanmasidir. Adabiyot darslarida asarlar asosida sahna asarlari namoyish qilish, dramatik asarlarni rollarga bo‘lib o‘qishdek faoliyatlar ham amalga oshirilishi inobatga olsak, mazkur intellekt kuchini anglaymiz.

Yuqorida keltirilgan misollardan ham ko‘rinib turibdiki, multimediali vositalarning barcha tarkibiy qismlari insonning Gardner nazariyasida tilga olingan intellekt turlariga bevosita va bilvosita ta‘sir etib, ularning shakllanishi va rivojlanishida vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu ta‘sirlar vizual-ko‘rish, musiqiy ritmik intellektda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ta‘lim jarayonini yanada samarali qilishda ularning hissasi sezilarli.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Раҳмонов Ш., Ўрганишни ўрганиш, мукамал хотира ёхуд миянгиз қобилиятларини қайта кашф қилинг. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2014.
2. Mavlonov O., Tilavov T., Aminov B. Biologiya (Odam va uning salomatligi). – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
3. Kexo J., Fisher N. Ong qudrati – bolalar xizmatida. – Toshkent: Davr Press, 2017.